



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 sentyabr holatiga


2017 yilning 1 sentyabr holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14330 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 456 taga ko'pdir (3,3%).

Shuningdek, faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13786 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga ko'paygan hamda ularning soni 408 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18 ta (3,4 %) ga oshgan hamda ularning umumiy soni 544 tani tashkil etgan.


Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni 1259 taga etib, tugatilganlar soni 386 taga kamligi va ularning umumiy soni 829 ta ekanligi kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-avgust oylarida 1259 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 9,4 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (365 ta), Xiva tumani (194 ta), Urganch (147 ta) va Xonqa tumanlarida (106 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (34 ta), Bog'ot (42 ta) hamda Shovot (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat (311 ta), savdo (276 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (146 ta) va qurilish (118 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta) hamda tashish va saqlashda (53 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 47 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 38,2 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-avgust oylarida 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'radigan bo'lsak sanoatda – 5 ta, savdo, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2017 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10960 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 5,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2773 tasi (25,3 %) Urganch shahriga, 2284 tasi (20,8 %) Xiva, 1126 tasi (10,3 %) Urganch tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10960 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3282 tasi (29,9 %) – savdoda, 2148 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1388 tasi (12,7 %) - qurilishda, 1030 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 744 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 526 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 218 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 207 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1417 tasi (12,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-avgust oylarida 1191 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 20,5 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (334 ta), Xiva (192 ta), Urganch tumanlarida (143 ta), tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (31 ta), Bog'ot (40 ta) hamda Shovot (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (310 ta), savdoda (276 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (145 ta) va qurilishda (118 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta), tashish va saqlashda (53 ta) hamda yashash va ovqatlanishda (105 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 sentyabr holatiga 809 tani tashkil etib, ulardan 782 tasi yoki 96,7 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona dav-
lat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan